



XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni (1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'mida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.



Korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalgaga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalarini soni
(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdordorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyatni mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlar qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda va o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur’ati bilan)




Faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2022-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Aksiyadorlik jamiyat:

Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyat hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyat ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni


(yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi
(2021-yil yanvar-dekabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi %)




2021-yilning yanvar-dekabr oylarida 7 968 ta korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 6 173 ta, oilaviy korxonalar 490 ta, xususiy korxonalar 360 ta, muassasalar 774 ta va boshqalar 171 tani tashkil etdi.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar tarkibi
(1- yanvar holatiga ko'ra)



Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022-yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1- yanvar holatiga ko'ra sanoat korxonalarini va tashkilotlari soni 9 344 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,0 % ga oshdi.

Jami sanoat korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida - 12,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 96,4 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslashda - 18,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,5 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 3,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) o'sishidir.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda - 68,0 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,4 %) tashkil etgan.

**Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona
va tashkilotlar soni**
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 3 132 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,0 % ga oshdi. Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili fuqarolik obyektlarini qurishda - o'tgan yilga nisbatan 10,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 8,4 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariada - 9,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 31,4 %) o'sishidir.

Bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan - 97,6 % ni (jami qurilishdagi ulushi 60,2 %) tashkil etgan.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 11 805 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 15,2 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan - 15,3 % ga (jami savdodagi ulushi 65,5 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidan ularni ta'mirlashda o'tgan yilga nisbatan - 19,9 % ga (jami savdodagi ulushi 7,4 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan - 13,8 % ga (jami savdodagi ulushi 27,1 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosidan tashqari
- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji
- Avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo

Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

- Sog‘lijni saqlash sohasidagi faoliyat

969



- Yashash uchun joy bilan ta’milangan holda parvarishlash

19



- Yashash uchun joy bilan ta’milnagan holda ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish

7



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



134

Yashash bo‘yicha xizmatlar



1 774

Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar


2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 908 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 7,3 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko‘payishining asosiy omili oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar - 7,0 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,0 %), yashash bo‘yicha xizmatlar - 11,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,0 %) o‘sishidir.

Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan

korxona va tashkilotlar soni

(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar soni 563 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 99,6 % ni tashkil etdi.

Jami axborot va aloqa sohasida korxona va tashkilotlar sonidan aloqa yo'nalishida - 2,8 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 46,4 %), axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyatda o'tgan yilga nisbatan 1,7 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 10,6 %), nashriyotchilik faoliyatida o'tgan yilga nisbatan - 13,6 % ga (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 8,9 %) o'sgan.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlarida o'tgan yilga nisbatan - 93,1 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 28,8 %), kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqishda o'tgan yilga nisbatan - 91,7 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 3,9 %), dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioshettirishda o'tgan yilga nisbatan - 80,0 % ni (jami axborot va aloqa sohasidagi ulushi 1,4 %) tashkil etadi.

Oilaviy korxonalar soni (1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 3 116 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 228 taga yoki 7,9 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 919 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 359 taga yoki 14,0 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida 490 ta yangi oilaviy korxonalar tashkil etildi.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1-yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)


Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 29 290 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 442 taga yoki 13,3 % ga oshganligini ko‘rsatmoqda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 27 350 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 3 691 taga yoki 15,6 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.


2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 6 173 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 259 taga yoki 4,4 % ga oshganligini ko‘rsatmoqda.




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni
(iqitisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Andijon viloyatidagi xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)**



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra 390 tani tashkil etib, ulardan 372 tasi yoki 95,4 % faoliyat ko‘rsatmoqda. Bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 25 taga yoki 6,8 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 49 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-dekabr oylarida, birlikda)**




**Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarining
davlatlar kesimida soni**
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)



Faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)

	2018- y.	2019- y.	2020- y.	2021- y.	2022- y.
Jami	172	222	299	339	372
shu jumladan:					
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	6	16	25	24	22
Sanoat	134	156	179	191	204
Qurilish	7	7	19	21	27
Savdo	10	21	35	47	54
Tashish va saqlash	3	2	2	4	4
Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	5	7	7	9	9
Axborot va aloqa	0	0	5	4	4
Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	1	1	3	5	5
Boshqa turlar	6	12	24	34	43


Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni
(1- yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko 'ra, birlikda)**

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Viloyat bo'yicha:	372	253	119
shaharlar:			
Andijon sh.	145	84	61
Xonobod sh.	20	14	6
tumanlar:			
Andijon	27	20	7
Asaka	25	20	5
Baliqchi	8	5	3
Bo'ston	5	5	0
Buloqboshi	18	13	5
Jalaquduq	14	8	6
Izboskan	6	4	2
Ulug'nor	4	3	1
Marhamat	14	11	3
Oltinko'l	22	16	6
Paxtaobod	10	7	3
Xo'jaobod	15	12	3
Shahrixon	27	20	7
Qo'rg'ontep'a	12	11	1

Faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




**Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning
hududlar kesimida soni**
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra, birlikda)




2022- yil 1- yanvar holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida jamidagi ulushi Andijon shahrida 32,8 %, Asaka 7,7 %, Shahrixon 6,8 %, Andijon 5,8 %, Izboskan 5,3 %, Baliqchi 5,1 %, Oltinko‘l 4,9 %, Marhamat 4,9 %, Xo‘jaobod 4,7 %, Qo‘rg‘ontepa 4,5 %, Paxtaobod 4,4 %, Jalaquduq 4,1 %, Buloqboshi 2,9 %, Ulug‘nor 2,0 %, Bo‘ston 1,9 % tumanlari va Xonobod shahri 2,2 % ni tashkil etadi.

**Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning
qo'shma korxona va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi
(2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi % da)**





2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - Xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni o'sib borishi, eng avvalo mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohланади.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



2021- yilning yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar kesimida taqsimlanganda Bo'ston (18,6 %), Andijon (18,4 %), Asaka (13,3 %), Shahrixon (12,9 %), Andijon shahri (11,8 %), Qo'rg'ontep'a (11,0 %), Izboskan (2,7 %), Buloqboshi (2,5 %), Baliqchi (2,2 %), Oltinko'l (1,6 %), Paxtaobod (1,4 %) Xonobod shahri (1,4 %), Jalaquduq (0,6 %), Marhamat (0,6 %), Xo'jaobod (0,6 %) va Ulug'nor (0,4 %) tumanlari ulushiga ega.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida, birlikda)



Statistik ko‘rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrida mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan - ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining % dagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar - O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar - norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmasan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.